

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2017 yil yanvar-oktyabr holatiga

Davlat statistika qo'mitasiga 2017 yilning yanvar-oktyabr holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **1818 ta** (o'tgan yilning shu davrida 1799 ta) murojaatlar kelib tushgan.

Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning **36,7 foizi (667 ta)** jismoniy shaxslar va **63,3 foizi (1151 ta)** yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.


Murojaatlarning asosiy qismi, ya'ni **1314 tasi (jamiga nisbatan 72,2 foiz)** – Toshkent shahridan va **133 tasi (7,3 foiz)** – Toshkent viloyatidan kelib tushgan.

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha jami 12 ta shahar va tumanlarda sayyor shaxsiy qabullar o'tkazilgan.

Ushbu sayyor qabullarda **97 ta** jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari ko'rib chiqilgan.


Murojaatlar (kelib tushishi bo'yicha)	Soni	Ulushi, %
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali	41	2,3
Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali	92	5,0
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali	183	10,0
Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali	217	12,0
To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar	1180	65,0
Qo'mita rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabullari-dagi og'zaki murojaatlar	105	5,7

Soni – birlikda



- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali
- Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy qabulidagi og'zaki murojaatlar

Ulushi—foizda



Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)	Soni	Ulushi, %
Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarini taqdim etish	979	53,8
Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish	295	16,2
Nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarni olish	199	10,9
Statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish, Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish	75	4,1
Qo'mitaning topshiriqlari va so'rovnomalari javoban yuborilgan ma'lumotlar	46	2,5
Davlat interaktiv xizmatlarini rivojlantirish, veb-sahifani takomillashtirish, axborotlashtirish sohalarida xizmat ko'rsatish bo'yicha	30	1,8
Boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlar	194	10,7

**Eslatib o'tamiz:**

O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,

“Ishonch telefon”lari:

(71) 230-81-80/ 230-81-82

Davlat statistika qo'mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish: (71) 230-81-81

Raisning virtual qabulxonasi—“[www.stat.uz](http://www.stat.uz)”

Pochta manzili - [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)

hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari “[my.gov.uz](http://my.gov.uz)” portal sahifalari orqali Davlat statistika qo'mitasi rahbariyati qabuliga “Onlayn” tarzda yozilish hamda elektron shaklda yozma murojaat etishingiz mumkin.

**Davlat statistika qo'mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:

**M.Normatov**  
(0371) 230-81-24